



IQTISODIYOTDA RAQOBAT TUSHUNCHASI VA UNING MOHIYATI

¹Sayfullayeva Nigora Fayzulla qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 2-bosqich talabasi

Tel: +998 {91} 583 00 53

Email: nigorasayfullayeva05@gmail.com

²Azimova Tamara Abrorovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 2-bosqich talabasi

Tel: +998 {88} 865 66 68

Email: Azimova0113@gmail.com

³Shokirov Humoyiddin Baxriddin o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 2-bosqich talabasi

Email: shokirovhumoyiddin@gmail.com

⁴Jumayeva Sitora Jamolitdin qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 2-bosqich talabasi

Tel: +998 {88} 242 61 71

Email: jumayevasitora7@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7559501>

ARTICLE INFO

Received: 12th January 2023

Accepted: 22th January 2023

Online: 23th January 2023

KEY WORDS

Iqtisod, raqobat, raqobat usullari va prezident nutqi.

ABSTRACT

Ushbu maqolada raqobatning nazariyasi. Uning usullari va mohiyati yoritilgan.

Hozirgi zamonda biz qaysi davlatga qaramaylik u albatta o'z iqtisodi tufayli rivojlanadi. Yani qachonki iqtisodiyotda raqobat bo'lsa o'shanda unda ijobiy o'zgarishlarni ko'ra boshlaymiz. Shu o'rinda biz avvalo raqobat nima ekanligi haqida gaplashib o'tsak.

Raqobat — bozor sub'ektlari iqtisodiy manfaatlarining to'qnashuvidan tashkil topgan bo'lib, ular orasidagi yuqori foyda va ko'proq nafililikka ega bo'lish uchun kurashni bildiradi. Raqobat so'zi lotincha — «concurrentia» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, to'qnashmoqni bildiradi. Iqtisodiyotdagi raqobat ko'p qirrali holat hisoblanib, yaxshi foyda ko'rish, o'z qobiliyatini to'laroq ishga solish, o'zi maqul ishni rivojlantirish, o'z obro'iga, imijga ega bo'lish uchun ko'rashni anglatadi. Iqtisodiy raqobatning asosini kishilarni mulk egalari sifatida alohidalanishi o'z ichiga oladi. Chunki xar bir mulk egasining o'z manfaati bor.. Erkin raqobat davrida raqiblar ko'rashining ikki asosiy shakl amalda bo'ladi: tarmoq orasidagi va tarmoqlararo raqobat. Tarmoq ichidagi raqobat — bunda bir tarmoq korxonalari o'zaro raqobatlashadilar. Bu raqobat, birinchidan, ishlab chiqarishni baland unumli texnika-texnologiyalar qo'llash usuli orqali mehnat tannarxini kamaytirish bilan o'z tovarlari sotilishning qulayroq sharoitigi ega bo'lish va qo'shimcha foyda olish bilan kurashadilar. Tarmoqlararo raqobat — deganda turlicha tarmoq firmalari oraqida eng baland foyda olish uchun olib boriladigan kurashni bilamiz. Tarmoqlararo raqobat kurashni kapitalni yaxshi foyda olib keladigan sohalarga joylashtirish uchun boradi. Yuqori foyda uchun kurash tadbirkorlarni o'z kapitalini foyda oz tarmoqdan u ko'p tarmoqqa ko'chirishga majbur bo'ladi. Foyda baland boshqa tarmoqlardan kapitallarning oqib kelishi natijasida bu tarmoqda ishlab chiqarish kengayadi va taklif ortadi,



bozor to'yinadi, tovarlarning meyo'riy nafligi kamayadi. Shu o'rinda biz raqobat haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev nutqiga e'tiborimizni qaratsak." Raqobat bo'lmasa, sifat bo'lmaydi, narx tushmaydi. Zamon o'zgaryapti, lekin monopol korxonalar o'zgarolmayapti. Qat'iy choralar ko'rish vaqti-soati keldi. Iqtisodiyotda bu hayot-mamotimiz. Agar rahbarlar shunga munosib bo'lsa, ishlaydi, bo'lmasa — ketadi" — deydi prezident. "Qachon raqobatga tayyor bo'lamiz? Soha va tarmoqlarimiz tayyor bo'lsa. Sohalar qachon tayyor bo'ladi? Mutaxassislar bo'lsa. Eng zaif joyimiz: malakali mutaxassislar yetishmaydi, texnologiya yo'q, standartlar yo'q. Shuning uchun bu sohani deyarli boshidan boshlashimiz kerak".

Shuningdek raqobat o'z ichiga 2 usulni oladi. Bular narx vositasida raqobatlashuv va narxdan foydalanmay raqobatlashuv. Erkin raqobat davri mobaynida raqobat kurashning bosh usuli tovarni raqibinikidan kamroq narxda sotish hisoblangan. Bu usulni qo'llash uchun korxonalar boshqalarnikidan ko'ra unumliroq texnologiyani olib kirishi, malakaliroq ishchilarni yollashi va mehnatni unumliroq tashkil etishi lozim.

Raqobat turli iqtisodiy sharoitda bo'ladi. Bu sharoit firmalar soni, maxsulotlar turi, narxlar ustidan nazorat, turli soxalarni monopollashuv holati, narxsiz raqobatning mavjudligi yoki bo'lmasligi, axborot olish imkoniyatlarining tulichaligi anglatadi. Bozor tizimida raqobatning, asosan ikki turiga ega bo'lib, ular mukammal va nomukammal raqobat sanaladi. Mukammal raqobat bu, shunday raqobatlashuv vaziyati tushuniladiki, unda bir xil maxsulot ishlab chiqaradigan ko'plab mayda va o'rta korxonalar bor, ular kurash doirasi keng, ular uchun mavjud tarmoqqa kirish va undan chiqish hamda axborot olish, erkinligi kafolatlanadi. Mukammal raqobatga misol qilib sof raqobat tizimini kiritishimiz mumkin. Sof raqobat tizimining asosiy xususiyati shundayki, bozorda o'z maxsulotini taklif qilayotgan, bir-biridan mutlaqo mustaqil ish ko'rayotgan ko'p sonli sotuvchilar mavjud hisoblanadi.

Bugungi kunda 31 ta tovarlar guruhi va 82 turdagi xizmatlar bozorida 245 ta korxonalar monopol holatda saqlanib qolgan. Biroq bir qator yo'nalishlarda raqobat muhiti shakllanib qolgan 19 xil mahsulot va xizmatlar bo'yicha 70 ta korxonani monopolistlar reyestrndan chiqarish lozim.

Raqobat quyidagilarga ko'maklashadi .

- ishlab chiqarishni kengaytirish va ixchamlashtirishga
- ilg'or yangiliklarni kiritishga
- resurs harajatlarini tejab qolishga
- iqtisodiyotning barcha samaradorligini oshirishga
- talabning qulay qondirilishiga
- narhlarni tenglashtirish va kamaytirishga

Xulosa va takliflar.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz kerakki yuqorida aytilganidek raqobat bu iqtisod uchun juda kerakli va zarurdir. Bunda prezidentimiz aytganlaridek biz qachonki raqobatga o'tmasak va har doim monopoliyaga yo'l ochib beraversak unda biz davlatning ertasini ko'rishimiz amri mahol bo'lib qolaveradi. Bu davlat uchun ham jamiyat uchun ham minus desak hech ham mubolag'a bo'lmaydi. Men shu o'rinda raqobat haqida bir taklif bilan chiqmoqchiman . Biz birinchi o'rinda rindi rivojlanib keloyotgan tadbirkorlarga e'tiborimizni qaratsak va ularga ham moddiy tarafdin yordam bersak ularni qo'llab quvvatlasak o'shanda biz o'zimizga va davlat



iqtisodining ertasi uchun chuqur hissa qo'shgan bo'lamiz. Xalq bilan muloqot maskanlari bor kabi tadbirkorning ham dardini eshitgan joy ochishimiz ham kerak. Qachonki jamiyatda sof demokratiya bo'lsa o'shanda u yerda raqobat bo'ladi va har qanday davlatning har qanday sohasi rivoj topadi desak mubolag'a bo'lmaydi.

References:

1. B.Ruzmetov, B.A.Ibragimov, Sh.B.Ruzmetov G.O'.Qurbanbayeva 'Iqtisodiyot nazariyasi', 2016-yil.
2. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. -T.: «Sharq», 2006
3. Tojiboeva D. Iqtisodiyot nazariyasi. 2-kitob: Oliy o'quv yurtlari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma. - T.: «Sharq», 2003.
4. Shodmonov Sh., Jo'raev T., Alimov R.O'. Iqtisodiyot nazariyasi. - T.: "Moliya", 2002
5. <https://uz.wikipedia.org>
6. <https://library.tatuof.uz>
7. <https://gazeta.uz>
8. <https://lex.uz>